“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=377

2026-yil
7-son
iyul
ISSN 3093-8546



Tergov harakatlari davrida ekologik obyektlar va yashil hududlarga yetkazilgan zararni qoplashning o‘ziga xos xususiyatlari

Gulbahor Tursunaliyeva,
O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
tayanch doktoranti
e-mail: mekhtysalikh070@bk.ru

Аннотация. Ushbu maqolada tergov organlari tomonidan tintuv, olib qo‘yish, hodisa joyini ko‘zdan kechirish, mol-mulkni xatlash kabi tergov harakatlarini o‘tkazish jarayonida ekologik obyektlar, yashil hududlar va dov-daraxtlarga yetkazilishi mumkin bo‘lgan zararni qoplashning huquqiy muammolari tadqiq etiladi. Shuningdek, tergov organlarining qonuniy yoki qonunga xilof harakatlari oqibatida tabiatga yetkazilgan zararni davlat tomonidan qoplashning fuqarolik-huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Maqolada Fuqarolik kodeksi, Jinoyat-protsessual kodeksi hamda ekologik qonunchilik normalari o‘rtasidagi tafovutlar yoritilib, ushbu sohadagi huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etishga qaratilgan takliflar ilgari suriladi.

Калит сўзлар. tergov harakatlari, ekologik zarar, yashil iqtisodiyot, fuqarolik-huquqiy javobgarlik, davlat javobgarligi, ashyoviy dalil, xatlash, kompensatsiya.

Аннотация. В настоящей статье исследуются правовые проблемы возмещения вреда, который может быть причинен экологическим объектам, зеленым насаждениям и деревьям в процессе проведения следственными органами таких следственных действий, как обыск, выемка, осмотр места происшествия и арест имущества. Также анализируются гражданско-правовые основы возмещения государством вреда, причиненного природе в результате правомерных или неправомерных действий следственных органов. В статье освещаются расхождения между нормами Гражданского кодекса, Уголовно-процессуального кодекса и экологического законодательства и выдвигаются предложения, направленные на устранение правовых пробелов в данной сфере.

Ключевые слова. следственные действия, экологический вред, зелёная экономика, гражданско-правовая ответственность, ответственность государства, вещественное доказательство, наложение ареста на имущество, компенсация.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Annotation. This article examines the legal issues of compensating for damage that may be caused to environmental objects, green spaces, and trees during investigative actions carried out by investigative bodies, such as search, seizure, inspection of the crime scene, and seizure of property. It also analyzes the civil law foundations for the state to compensate for damage caused to nature as a result of the lawful or unlawful actions of investigative bodies. The article highlights the discrepancies between the norms of the Civil Code, the Criminal Procedure Code, and environmental legislation, and puts forward proposals aimed at eliminating legal gaps in this field.

Keywords. investigative actions, environmental damage, green economy, civil liability, state liability, physical evidence, seizure of property, compensation.

Ma'lumki, yashil iqtisodiyotga oʻtish, atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biridir. Tabiiy resurslar, daraxtlar, boshqa yashil oʻsimliklar va ekologik tizimlarning daxlsizligini ta'minlash nafaqat xoʻjalik yurituvchi subyektlar yoki fuqarolar, balki davlat organlari, xususan, huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalar zimmasiga ham muayyan majburiyatlar yuklaydi.

Biroq sud-tergov amaliyotida jinoyatlarni fosh etish va dalillarni toʻplash maqsadida amalga oshiriladigan tezkor-qidiruv va tergov harakatlari (masalan, tintuv, olib qoʻyish, eksgumatsiya, xatlash) natijasida atrof-muhitga, xususan, daraxtlar va boshqa oʻsimliklarga, sugʻorish tizimlariga, unumdor tuproq qatlamiga yoki xususiy ekologik loyihalarga zarar yetkazish holatlari ham uchrab turadi.

Tergov organlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash masalasi fuqarolik qonunchiligi bilan tartibga solingan boʻlsa-da, aynan ekologik obyektlar va yashil hududlarga yetkazilgan zararni qoplashning huquqiy mexanizmi oʻziga xos murakkabliklarga ega boʻlib, ushbu masala hozirgacha yetarli darajada tadqiq etilmagan. Ushbu maqola tergov jarayonida yashil obodonlashtirish elementlariga yetkazilgan zararni davlat tomonidan qoplashning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilishga qaratilgan.

Yashil iqtisodiyot subyektlarining asossiz toʻxtatib qoʻyilishi natijasida davlat tomonidan ishlab chiqilgan ba'zi strategik dasturlar ijrosi kechikishini ham alohida ta'kidlab oʻtish mumkin.

Dastlab, tergov jarayonida ekologik obyektlarga zarar yetkazilishining huquqiy va tabiiy shakllari masalasiga e'tibor qaratish lozim. Ya'ni, tergov jarayonida jinoyat qurolini topish, yashirilgan ashyoviy dalillarni qidirish yoki jinoyat izlarini aniqlash maqsadida koʻplab protsessual harakatlar oʻtkaziladi. Ushbu harakatlar davomida ekologik obyektlarga zarar yetkazish asosan quyidagi shakllarda namoyon boʻladi:

1. Tintuv va olib qoʻyish davrida: yashirilgan ashyolarni qidirish maqsadida xususiy yer maydonlaridagi yashil dov-daraxtlarni asossiz chopish, payhon qilish, sugʻorish tizimlarini ishdan chiqarish yoki unumdor tuproq qatlamini texnika vositalari bilan buzish kabi holatlar;

2. Mol-mulkni xatlash va saqlash jarayonida: tergov organi tomonidan issiqxonalar, ekologik fermer xoʻjaliklari, koʻchatxonalar yoki gidroponika majmualari muhrlab qoʻyilishi yoki xatlanishi natijasida u yerda parvarish qilinayotgan oʻsimliklarning suvsiz va qarovsiz qolib, nobud boʻlishi kabi holatlar;

3. Ekspertiza va koʻzdan kechirish jarayonida: jinoyat joyini koʻzdan kechirish yoki ekologik jinoyatlarni tergov qilish jarayonida laboratoriya tahlillari uchun namuna olish bahonasida yashil oʻsimliklar yoki tabiiy resurslarga asossiz ortiqcha zarar yetkazish kabi holatlar shular jumlasidandir.

Yuqorida sanab oʻtilgan holatlarda yetkazilgan zarar an'anaviy moddiy zarardan farq qiladi. Sababi, daraxt yoki butaning nobud boʻlishi nafaqat uning yogʻoch sifatida baholanadigan qiymatini, balki uning ekologik funksiyasini, aynan, kislorod ishlab chiqarish, iqlimni moʻtadillashtirish, estetik qiymatlarining ham yoʻqotilishiga olib keladi.

Keyingi bosqichda ushbu sohaga oid amaldagi qonunchilik tahlili va javobgarlik asoslariga toʻxtalib oʻtish lozim. Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 990-moddasida tergov, surishtiruv, prokuratura organlari va sudning qonunga xilof harakatlari natijasida fuqaroga yoki yuridik shaxsga yetkazilgan zarar, tergovchi yoki prokurorning aybidan qat'i nazar, toʻla hajmda davlat tomonidan qoplanishi belgilab qoʻyilgan. Biroq, amaliyotda ushbu normani ekologik va yashil zararlarga nisbatan qoʻllashda bir qator tizimli muammolar yuzaga keladi.

Masalan: “qonuniy” va “qonunga xilof” harakatlar oʻrtasidagi chegara masalasi. Ma'lumki, Fuqarolik kodeksining 990-moddasi zarar faqat “qonunga xilof” harakatlar natijasida yetkazilgan boʻlishini talab qiladi. Agar tergovchi qonunda belgilangan tartibda, prokuror sanksiyasi bilan yuridik shaxs hududida tintuv oʻtkazgan boʻlsa va ashyoviy dalilni qidirish jarayonida noyob daraxtlar yoki koʻchatlarni shikastlagan boʻlsa, ushbu harakat qonuniy hisoblanadi. Shuningdek, ushbu kodeksning 989-moddasiga koʻra esa, davlat organlarining qonuniy harakatlari natijasida yetkazilgan zarar qonunda nazarda tutilgan hollardagina qoplanadi. Afsuski, amaldagi jinoyat-protsessual va ekologik qonunchilikda tergov organlarining qonuniy protsessual harakatlari davomida yashil tabiat obyektlariga yetkazgan zararini qoplash kafolatlari yetarlicha ochib berilmagan.

Bundan tashqari, “yashil zarar” qiymatini baholash masalasini ham koʻrib chiqish muhim hisoblanadi. Shu oʻrinda quyidagi savol tugʻiladi: tergov asnosida payhon qilingan yosh koʻchat yoki kesilgan daraxtning zarari qanday hisoblanadi? Fuqarolik huquqi nuqtayi nazaridan zarar faqat koʻchatning bozor narxi va uni qayta

ekish xarajatlari (haqiqiy zarar) doirasida hisoblanishi mumkin. Ekologik huquq nuqtayi nazaridan esa, ekologik zarar tarkibiga daraxtning kelgusi yillarda ekotizimga keltiradigan foydasi, kislorod balansi va uglerod yutilishi kabi yashil iqtisodiyot mezonlari ham kiritilishi kerak. Biroq, amaliyotda fuqarolik sudlari zararni baholashda asosan oddiy buxgalteriya hisob-kitoblariga tayanadi.

Yashil iqtisodiyot prinsiplari asosida zararni qoplashning o‘ziga xos xususiyatlarini asoslash ham muhim hisoblanadi. Ya'ni, yashil iqtisodiyot sharoitida tergov organlari tomonidan yetkazilgan zararni qoplash instituti quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim:

Birinchidan, proporsionallik va “zararsizlantirish” (prevention) prinsipi. Bunda, tergovchi protsessual harakatni rejalashtirayotganda atrof-muhitga eng kam zarar yetkazadigan usulni tanlashi shart. Agar yer ostidan ashyoviy dalilni qazib olish kerak bo‘lsa, u yerda o‘sib turgan ko‘p yillik daraxtlarni chopib tashlamasdan, zamonaviy metallodetektor yoki skanerlash texnologiyalaridan foydalanishi lozim. Bu tergov harakatlarida ekologik ehtiyotkorlik prinsipini talab qiladi.

Ikkinchidan, boy berilgan yashil foyda (green lost profit). Ya'ni, bunday holatda, agar tergov organi ekologik tadbirkorlik subyektining (masalan, quyosh panellari parki yoki tomchilatib sug‘orish tizimlari o‘rnatilgan intensiv bog‘ning) faoliyatini asossiz to‘xtatib qo‘ysa yoki xatlab qo‘ysa, tadbirkor nafaqat joriy daromadidan mahrum bo‘lgan bo‘ladi, balki “yashil sertifikatlar” (karbon kreditlari) va xalqaro ekologik grantlardan ham ayrilishi mumkin. Bunday hollarda fuqarolik-huquqiy javobgarlik doirasida “boy berilgan yashil foyda” ham undirilishi lozim.

Uchinchidan, restitutsiya (tabiiy holatni tiklash) masalasi. Oddiy fuqarolik nizolarida zarar pul ko‘rinishida qoplanishi mumkin. Ammo, ekologik obyektlarga zarar yetkazilgan taqdirda, eng maqbul chora – tabiiy restitutsiya (shikastlangan daraxt o‘rniga xuddi shunday turdagi va yoshdagi yangi ko‘chat ekish, tuproq unumdorligini qayta tiklash (rekultivatsiya)) hisoblanadi. Davlat byudjeti hisobidan zararni pul shaklida to‘lash har doim ham tabiatning tiklanishini ta'minlamaydi.

Tergov organlarining harakatlari natijasida yashil hududlar va ekologik obyektlarga yetkaziladigan zararlar bo‘yicha javobgarlik mexanizmini yaxshilash maqsadida quyidagi islohotlarni amalga oshirish taklif etiladi:

1. Fuqarolik kodeksiga maxsus norma kiritish: Kodeksning 990-moddasiga qo‘shimcha qism kiritilib, unda tergov organlarining har qanday (ham qonuniy, ham qonunga xilof) harakatlari natijasida atrof-muhitga, yashil dov-daraxtlar va ekologik loyihalarga yetkazilgan zarar davlat tomonidan to‘liq hajmda (ekologik kompensatsiyani inobatga olgan holda) qoplanishi qat'iy belgilanishi lozim.

2. Jinoyat-protsessual kodeksiga ekologik kafolatlarni kiritish: Kodeksga tintuv, olib qo‘yish yoki mol-mulkni xatlash jarayonida

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

yashil dov-daraxtlar, o‘simlik dunyosi va ekotizim daxlsizligini ta'minlash bo‘yicha maxsus qoidalar kiritilishi kerak. Agar tergov harakati jarayonida o‘simlik dunyosiga zarar yetish xavfi bo‘lsa, tergovchi ushbu harakatni Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi mutaxassislari ishtirokida amalga oshirishi shartligi belgilanishi kerak.

3. Zararni baholashning “yashil metodikasi”ni yaratish: sud-ekologik ekspertizasi uslubiyotini yangilash, tergov tufayli nobud bo‘lgan yashil obyektlarning nafaqat moddiy qiymatini, balki ularning ekologik-funksional qiymatini (kislorod balansi, uglerod yutilishi darajasi) hisoblash tizimini joriy etish lozim.

4. Ekologik sug‘urtalash tizimini rivojlantirish: “yashil biznes” subyektlarining mulklarini tergov organlari yoki boshqa davlat idoralarining aralashuvi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ekologik risklardan majburiy/ixtiyoriy sug‘urta qilish tizimini joriy etish. Bunda sug‘urta kompaniyasi zararni qoplab beradi va keyinchalik regress tartibida davlat byudjetidan ushbu mablag‘ni undirib oladi.

Xulosa o‘rnida keltirish lozim, yashil iqtisodiyotga o‘tish davrida nafaqat xususiy sektor, balki davlatning huquqni muhofaza qiluvchi organlari ham o‘z faoliyatida ekologik mas'uliyatni his etishlari shart. Tergov organlari tomonidan o‘tkaziladigan protsessual harakatlar davomida atrof-muhit va yashil obyektlarga yetkazilgan zararni qoplashning huquqiy kafolatlarini kuchaytirish mamlakatda xususiy mulk daxlsizligini va ekologik barqarorlikni ta'minlashning eng muhim shartlaridan biridir. Qonunchilikka taklif etilayotgan o‘zgartirishlar davlat organlarining mas'uliyatini oshirishga va yashil investitsion muhitning ishonchli himoya qilinishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

I. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2023. -80 b.

2. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2024. – 560 b. (Elektron manba: Lex.uz).

3. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2025. – 640 b. (Elektron manba: Lex.uz).

4. O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. – 1993. – № 1. – 38-modda.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (Lex.uz).

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi “Respublikada ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-46-sonli Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (Lex.uz).

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga o‘tish texnologiyalarini joriy etish va energiya tejamkorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-447-sonli Qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (Lex.uz).

II. Ilmiy adabiyotlar va darsliklar:

1. Imomov N.F. Ekologik huquq. Darslik. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2020. – 320 b.
2. Rustambayev M.X. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual huquqi. Darslik. – Toshkent: TDYU, 2021. – 580 b.
3. Tojixonov U., Saidov A. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: Adolat, 2018. – 412 b.
4. Usmonov M.B. Fuqarolik huquqida davlat organlarining javobgarligi muammolari. Monografiya. – Toshkent: Adolat, 2019. – 184 b.

III. Ilmiy maqolalar va tezislar:

1. Xalilov J.A. Tergov organlari tomonidan yetkazilgan zararni fuqarolik-huquqiy tartibda qoplash mexanizmi // Huquq va burch. – Toshkent, 2022. – № 4. – B. 45–51.
2. Boboqulov Sh. Yashil iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish masalalari // O‘zbekiston qonunchiligi tahlili. – Toshkent, 2023. – № 2. – B. 88–94.
3. Karimov A.B. Ekologik zararni qoplashda tabiiy restitutsiya prinsipini qo‘llashning huquqiy muammolari // Davlat va huquq. – Toshkent, 2021. – № 3. – B. 112–117.